

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI
O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA KOMPETENSIYALARINI
BAHOLASH TARTIBI**

(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 19-mayda 1812-son bilan ro'yxatga olingan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2008-yil 30-apreldagi 01- 148Q/Q-son, 118-son va 16/QQ-sonli qo'shma qarorlari bilan tasdiqlangan "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom)

Umumiy qoidalar

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari hamda davlat ta'lim standartlari talablari asosida amalga oshiriladi. Baholashning asosiy maqsadi o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, ta'lim sifatini nazorat qilish, mustaqil fikrlash, amaliy faoliyatni tashkil etish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini baholash (boshlang'ich nazorat-BN, joriy nazorat-JN, oraliq nazorat-ON, yakuniy nazorat-YaN, qayta topshiriq-QT, o'rtacha joriy nazorat-O'JN, o'rtacha oraliq nazorat-O'ON, R-semestr) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 19-mayda 1812-son bilan ro'yxatga olingan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2008-yil 30-apreldagi 01- 148Q/Q-son, 118-son va 16/QQ-sonli qo'shma qarorlari bilan tasdiqlangan "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomning 8-bandiga asosan har bir nazorat turi qanday shaklda o'tkazilishidan qat'iy nazar besh (5) ballik, ("5", "4", "3", "2") usulda butun sonlar yordamida baholanishi belgilab qo'yilgan.

O'quvchilarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat tartibotlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat - kunlik so'rovlar, seminarlar, yozma ishlar (diktant, bayon, insho) va testlar tarzida bilimlar, malaka va ko'nikmalar tekshiriladi;

oraliq nazorat - o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Uning asosida o'quvchi reytinggi aniqlanadi. Bilimlar, malaka va ko'nikmalarni baholash uchun oraliq nazorat og'zaki, yozma ishlar (diktant, bayon, insho), testlar, sinovlar shaklida o'tkaziladi;

yakuniy nazorat - akademik litseyda semestr tugallangandan keyin imtihonlar, testlar shaklida amalga oshiriladi.

Fan tugallanishida yakuniy nazorat test usulida o'tkaziladi. Boshqa hollarda yakuniy nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

Har bir kursda o'qish tugagandan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra

o'quvchilarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

Reyting tizimini joriy qilishda quyidagi asosiy tamoyillar bajarilishi zarur:

a) har bir fan bo'yicha tegishli kafedrlar tomonidan ma'qullangan variantlar asosida boshlang'ich nazorat o'tkaziladi. Boshlang'ich nazorat reyting monitoringi va tahlil guruhi tomonidan o'tkaziladi;

b) o'quv dasturining mantiqan tugallangan bo'limi bo'yicha o'quvchi albatta baholanadi va natijasi o'tish balidan (3 ball) past bo'lganda qayta nazorat belgilanadi. Ushbu bo'limlarni tegishli kafedrlar aniqlaydi;

c) yakuniy nazorat kafedrlar tomonidan tuzilgan variantlar asosida reyting monitoringi va tahlil guruhi kuzatuv ostida o'tkaziladi.

Semestr mobaynida o'quv yuklamasi 24 soatdan kam bo'lgan fanlardan oraliq nazorat o'tkazilmaydi.

Boshlang'ich nazoratning natijasi boshqa nazoratdan olingan ballarga qo'shilmaydi. U o'quvchining semestr davomida ushbu fan bo'yicha o'zlashtirish sur'atini tahlil qilishda, o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash faoliyatining samarasi mezon sifatida qo'llaniladi.

Muayyan fan bo'yicha o'quvchining semestr mobaynida to'plashi mumkin bo'lgan umumiy bali (R semestr) maksimum «5» ballni tashkil qilib, quyidagicha hisoblanadi:

$$R \text{ semestr} = \frac{JN + ON + YaN}{3}, \text{ bunda:}$$

o'rtacha JN —semester davomida oquvchilarga qo'yilgan joriy baholarning o'rtachasi,

o'rtacha ON — o'quvchining semestr davomida oraliq nazoratlar bo'yicha butun songa yaxlitlangan o'rtacha bali.

Agar fanning semestr bo'yicha yuklamasi 24 soatdan kam bo'lib, oraliq nazorat o'tkazilmagan taqdirda,

$$R \text{ semestr} = \frac{JN + YaN}{2} \text{ bo'ladi.}$$

Boshlang'ich nazorat-BN, joriy nazorat-JN, oraliq nazorat-ON, yakuniy nazorat- YaN, qayta topshiriq-QT, o'rtacha JN, o'rtacha ON, R semestr baholari qo'yilgandan so'ng jumalni quyi qismida o'qituvchilar imzosi bilan tasdiqlanadi.

Farg'ona davlat universiteti
akademik litseyi direktori



H.Sharipov